

**Markaziy bank tomonidan “Umumjahon pul haftaligi”
(Global Money Week) doirasida yoshlar o‘rtasida videoroliklar
tanlovini o‘tkazish
QOIDALARI**

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1.Ushbu hujjat “Umumjahon pul haftaligi” (Global Money Week) doirasida videoroliklar tanlovini (bundan buyon matnda Tanlov deb yuritiladi) tashkil etish va o‘tkazishni tartibga soladi.

1.2.Ushbu Tanlov Markaziy bank tomonidan o‘tkazilib, ishtirokchilar yaratgan informasion videoroliklar orqali moliyaviy savodxonlikni oshirish, bazaviy bank mahsulotlaridan xavfsiz va to‘g‘ri foydalanish hamda moliyaviy xatarlar to‘g‘risidagi bilimlar shakllantirish ko‘zda tutilgan.

1.3.Ushbu Tanlovda kundalik turmushda bank mahsulotlari va xizmatlaridan to‘g‘ri va xavfsiz foydalanishning muhim ahamiyati hamda moliyaviy xatarlar mohiyatini ochib bergan eng yaxshi videorolik aniqlanadi.

2. TANLOV MAQSADI

Ushbu Tanlov maqsadi bank mahsulotlari va xizmatlari, raqamli himoya vositalari to‘g‘risidagi ma'lumotlarni o‘rganish hamda yosh avlodning moliyaviy madaniyati darajasini oshirishdan iborat.

3. TANLOV UCHUN MAVZULAR

Tanlovda bir daqiqagacha bo‘lgan qisqa videofilmlar yaratiladi.

Tanlov ikki nominatsiya bo‘yicha o‘tkaziladi:

1. “Bank kartalari bilan bog‘liq firibgarliklarning oldini olish”;

2. “Raqamli moliyaviy xizmatlardan xavfsiz foydalanish”.

Muallif videorolikda moliyaviy xatarlar, bazaviy bank mahsulotlari va xizmatlaridan xavfsiz foydalanish bo‘yicha o‘z tasavvurini yoritib berishi lozim.

4. TANLOV ISHTIROKCHILARI

Tanlov 14-20 yoshdagilar orasida o‘tkaziladi.

Individual ishlar bilan bir qatorda kollektiv ishlar ham qabul qilinadi (bunda mas'ul shaxsni ko‘rsatish lozim bo‘ladi).

5. TANLOVNING TEXNIK SHARTLARI

Tanlov mavzusidan chiqmagan holda videorolikni istalgan texnik apparat yordamida suratga olish mumkin.

Videorolikka qo'yiladigan talablar:

- formati: MP4 h264;
- o'lchamlari – 1080p, 720p (eni bo'yicha minimal o'lcham 1280 piksel, balandligi bo'yicha minimal o'lcham 720 piksel);
- davomiyligi – 1 daqiqagacha;
- videorolik syujeti ishtirokchilar tomonidan mustaqil belgilanadi (hikoya, reportaj, musiqiy klip, multfilm va h.k.).

Taqdim etiladigan ijodiy ishlarda uchinchi shaxslar huquqlarini buzuvchi, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid keluvchi hamda reklama elementlarini o'zida mujassam etuvchi ma'lumotlar bo'lmasligi lozim.

6. BAHOLASH MEZONLARI

Tanlov bo'yicha hay'at a'zolari videoroliklarni quyidagi mezonlar asosida baholashadi:

- ijodiy ishning e'lon qilingan mavzuga mos kelishi;
- videorolikning kreativligi (yangi g'oyalar, originallik);
- ma'lumotlarning to'liqligi;
- estetik qoidalarga javob berishi.

7. TANLOV TASHKILY QO'MITASI VA HAKAMLAR HAY'ATI

Tanlov tashkiliy qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki xodimlaridan tashkil topadi va quyidagilarga mas'ul hisoblanadi:

- ishtirokchilardan arizalar va Tanlov bo'yicha ijodiy ishlarni qabul qilish;
- baholash mezonlarini aniqlash va Tanlovga taqdim etilgan ishlar, materiallar va hujjatlar ekspertizasini tashkil etish, shu jumladan plagiatlik mavjudligini tekshirish;
- tanlov g'oliblarini rag'batlantirish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- Markaziy bankning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali Tanlov to'g'risida ma'lumotlar berib borish.

Ijodiy ishlarni baholash uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki vakillaridan iborat Tanlov hakamlar hay'ati tuziladi.

Tanlov tashkiliy qo‘mitasi muallifni ogohlantirmasdan turib Tanlov qoidalarining 5-bandi shartlariga javob bermaydigan ishlarni Tanlovdan chetlashtirish huquqiga ega.

Tanlovning tashkiliy qo‘mitasi Tanlov bo‘yicha har qanday ijodiy ishlarni mualliflarga xabar bermasdan va hech qanday haq to‘lamasdan to‘liq yoki qisman nashr etishga, shuningdek ulardan tadqiqot ishlari uchun foydalanishga haqlidir.

8. TANLOVNI TASHKIL ETISH TARTIBI VA SHARTLARI

Tanlov bo‘yicha ijodiy ishlar **2021 yil 20 martgacha** qabul qilinadi. **2021 yil 28 mart kuni** Tanlov natijalari e‘lon qilinadi hamda Markaziy bankning rasmiy kanallarida tegishli ma‘lumotlar joylashtiriladi.

2021 yil 20 martdan keyin yuborilgan Tanlov bo‘yicha ishlar Tanlovda ishtirok etishiga ruxsat berilmaydi.

Tanlovda ishtirok etish Tanlov shartlariga rozilikni anglatadi.

Muallif avtomatik tarzda o‘z ijodiy ishlarini Markaziy bankning rasmiy kanallari, moliyaviy savodxonlik bo‘yicha ijtimoiy tarmoq sahifalarida nashr qilishga rozilik beradi.

G‘oliblarni saralash tartibi:

Tanlov bo‘yicha hakamlar hay‘ati a‘zolari arizalarni qabul qilish yakunlanganidan so‘ng har bir nominatsiya bo‘yicha g‘oliblarni aniqlaydi.

Tanlov natijalariga ko‘ra ikkita nominatsiya bo‘yicha g‘oliblar va sovrindorlar aniqlanadi.

5-banda ko‘rsatilgan shartlarga javob bermaydigan ijodiy ishlar hakamlar hay‘ati tomonidan ko‘rib chiqilmaydi.

Tanlov bo‘yicha ijodiy ishlarga taqriz berilmaydi va ishlar qaytarilmaydi. Tanlov jarayonlari va natijalari bo‘yicha shikoyatlar qabul qilinmaydi.

Tanlov hakamlar hay‘ati a‘zolarining kamida 60 foizi Tanlov ishlariga ovoz bergan taqdirda natijalar inobatga olinadi.

Tanlov sovg‘alari:

1-o‘rin – **elektron kitob;**

2-o‘rin – **smart soat;**

3-o‘rin – **hard disk.**

9. ARIZALARNI TAQDIM ETISH

Tanlov ishtirokchilari arizalar va videoroliklarni konkurs.cbu@gmail.com elektron pochta manzilliga yuborishlari (xat mavzusida “Global Money Week Tanlovi” deb ko‘rsatilishi shart), shuningdek tashqi xotira qurilmalari (fleshka, DVD disk va h.k.) yordamida Markaziy bank binosiga olib kelib berishlari mumkin.

Qo‘shimcha savollar yuzasidan quyidagi telefon raqamiga murojaat qiling:
+99871 212-73-56.

ARIZA SHAKLI

Ishtirokchi (ishtirokchilar) F.I.Sh.	
Ta’lim olayotgan o’quv yurti (nomi, manzili)	
Telefon raqami	
Uy manzili	
Elektron pochta manzili	
Maktab, kollej, akademik litsey va oliy o’quv yurtlari rahbariyatining F.I.SH., va telefon raqamlari	